

**MILLIY TEXNOLOGIK TADQIQOTLAR UNIVERSITETI «MISIS»NING
OLMALIQ SHAHRIDAGI FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.22/30.12.2019.T.98.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

SOXIBOV ISOMIDDIN YULDASHOVICH

**ANGREN KO‘MIR KONINI JADAL O‘ZLASHTIRISH SHAROITIDA
YER OSTI BOYLIKLARIDAN OQILONA VA BEXATAR
FOYDALANISHNING MARKSHEYDERLIK MONITORINGI**

04.00.09 - Marksheyderiya

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Olmaliq - 2023

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Soxibov Isomiddin Yuldashovich

Angren ko‘mir konini jadal o‘zlashtirish sharoitida yer osti boyliklaridan
oqilona va bexatar foydalanishning marksheyderlik monitoringi..... 3

Сохибов Исомиддин Юлдашович

Маркшейдерский мониторинг рационального и безопасного
недропользования в условиях интенсивного освоения Ангреновского
угольного месторождения..... 21

Sohibov Isomiddin Yuldashovich

Surveying monitoring of rational and safe subsurface use in conditions of
intensive development of the Angren coal deposit..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 42

**MILLIY TEXNOLOGIK TADQIQOTLAR UNIVERSITETI «MISIS»NING
OLMALIQ SHAHRIDAGI FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.22/30.12.2019.T.98.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

SOXIBOV ISOMIDDIN YULDASHOVICH

**ANGREN KO‘MIR KONINI JADAL O‘ZLASHTIRISH SHAROITIDA
YER OSTI BOYLIKLARIDAN OQILONA VA BEXATAR
FOYDALANISHNING MARKSHEYDERLIK MONITORINGI**

04.00.09 - Marksheyderiya

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Olmaliq - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/T3453 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.misis.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Sayyidqosimov Sayyidjabbor Sayyidqosim o‘g‘li**
texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Baxayeva Svetlana Petrovna**
texnika fanlari doktori, professor

Xasanov Aleksey Rashidovich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **Navoiy Davlat Konchilik va Texnologiyalar Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti «MISIS»ning Olmaliq shahridagi filiali huzuridagi DSc.22/30.12.2019.T.98.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashning 2023 yil «__» _____ soat _____-dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 110101, Olmaliq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 56-uy. Tel.: (70) 614-22-57; e-mail: info@misis.uz.)

Dissertatsiya bilan Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti «MISIS»ning Olmaliq shahridagi filialining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 110101, Olmaliq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 56-uy. Tel.: (70) 614-22- 57.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «__» _____ dagi «__» raqamli reyestr bayonnomasi)

F.Ya. Umarov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

G.S. Nutfulloyev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., dotsent

Sh.Sh. Zairov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda konchilik korxonalarining marksheyderlik xizmatiga yer osti boyliklaridan oqilona va bexatar foydalanish borasida yetakchi vazifa ajratilgan. Hozirgi vaqtda konlarning ko'payishi va qazib olish ishlarining chuqurlashib borishi munosabati bilan marksheyderlik xizmatining vazifalari yetarlicha murakkablashgan, shu sababli marksheyderlardan zamonaviy o'lchash ishlarini o'ta puxta va yuqori aniqlikda olib borishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda dunyoda ko'mirni ochiq usulda qazib olish borasidagi konchilik ishlarini samarali va bexatar olib borishga erishish uchun o'tkaziladigan monitoring har xil soha mutaxassislarini jalb qilgan holda olib boriladi. Bu tizimda marksheyderning o'rni bebaho, chunki karyerning kuzatiladigan o'lchamlari, kon massivining siljishi va deformatsiyalanishi, foydali qazilma zahirasi va tog' jinslari jamlanmalari geometriyasi to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishi kerak bo'ladi. Kon to'g'risidagi zamonaviy ma'lumotlarga ega bo'lgan marksheyderlik xizmatlari karyer borti atrofi massividagi geomexanik jarayonlarni nazorat qilish va ularning holatini prognozlashga oid ilmiy amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada konchilik sohasi rivojlangan mamlakatlarda muayyan konchilik sharoitida aniq natijalarga erishilgan, ammo konning hududiy geodinamikasining geologik shakllanish sharoitlari, konchilik ishlarini boshlashdan avval paydo bo'lgan tektonik jarayonlarni nuqtaviy-fazoviy matematik modellashtirish negizida tog' jinslari massivida sodir bo'ladigan deformatsion jarayonlar sababini baholash imkonini beradigan amallar kompleks tadqiq qilinmaganligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ko'mir qazib olish korxonalarining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida¹ «2017-2021 yillarda ko'mirni qazib olish va u bilan bog'liq bo'lgan kon ag'darma ishlari hajmi bo'yicha maqsadli parametrlarga erishishni ta'minlashning kompleks chora-tadbirlari ishlab chiqish kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, marksheyderlik monitoringi negizida konchilik ishlarini olib borishni chuqurlashuvi munosabati bilan karyer borti atrofi tog' jinslari massivining deformatsion zonalaridagi ustuvorlik holatini baholash va prognozlash usullarini tadqiq qilish hamda ishlab chiqish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi «O'zbekko'mir aksiyadorlik jamiyatini boshqarish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF 4234 - sonli, 2019 yil 19 oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 martdagi PF-4234 sonli farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi PF-4497 sonli farmonlari va boshqa ko'mir sohasini rivojiga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda ko'mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiyalash dasturi to'g'risida»gi 13 iyun 2017 yil PF 3054-sonli Farmoni.

tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. «Yer to'g'risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyolarni qayta ishlash)» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ko'mir va rudali konlarni ochiq usulda qazib olish texnologiyasi rivojiga Melnikov N.V., Melnikov N.N., Rakishev B.R., Raximov V.R., Reshetnyak S.P., Rjevskiy V.V., Raimjanov B.R., Zairov Sh.Sh., Umarov F.Ya., Nasirov U.F., Panov V.A., Poderni R.Y., Winterhalder J. va boshqalar, marksheyderlik ishi, konchilik geometriyasi va geomexanikasi rivojiga esa: Ushakov I.N., Bukrinskiy V.A., Protopopov I.I., Ivaxnenko A.G., Kalinichenko V.M., Rijov P.A., Popov I.I., Gusev V.N., Nurpeisova M.B., Nizametdinov F.K., Baxayeva S.P., Naimova R.SH., Sayyidqosimov S.S., Atkinson A.C., Elving G, Tajdus A. va boshqalar sezilarli darajada hissa qo'shganlar.

Mavjud ilmiy ishlar va tadqiqotlar konchilik korxonalaridagi paydo bo'ladigan geomexanik jarayonlarni o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Konchilik ishlarining boshlanishiga qadar yer qa'rida sodir bo'lgan geomexanik jarayonlarni baholash va bort atrofi massividagi mavjud deformatsion harakatlarning birlamchi sabablarini geomexanik modellashtirish negizida ko'mir konini jadal ekspluatatsiya qilish sharoitida aniqlash ishlari keltirilgan tadqiqotlar doirasidan o'rin olmay qolgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti va «O'zbekko'mir» aksiyadorlik jamiyati ilmiy tadqiqot rejalari muvofiq №13/721 son «Angren ko'mir qazib olish razrezida qazib olish ishlarini jadallashishi va konchilik ishlarini olib borishni chuqurlashuvi munosabati bilan bort atrofi massivi ustuvorlik holatini baholash va prognozlash» mavzusidagi xo'jalik shartnomasi maqomidagi tadqiqot ishi (2021-2022 yy.) va «Foydali qazilma konlaridan oqilona, kompleks va bexatar qazib olishni marksheyderlik ta'minoti va yer qa'rini muhofazalashning ilmiy asoslari» (2015-2021 yy.) mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Angren qo'ng'ir ko'mir konini jadal qazib olish sharoitida bort atrofi massivida sodir bo'ladigan deformatsion jarayonlarning sababini baholash va ularning ustuvorligini prognozlash metodologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

«Angren ko'mir koni»dagi konchilik ishlarining mavjud holatini va razrez borti ustuvorligini ta'minlashning o'rganilganligini tahlil qilish;

«Angren ko'mir koni»dagi konchilik ishlari holatining marksheyderlik monitoringini va kon geometrik tahlili usullarini ishlab chiqish;

ko'mir konlarida ochiq konchilik ishlarini olib borishdagi bort ustuvorligining gemexanik ta'minotini asoslash;

«Angren ko'mir koni»ni ochiq usulda qazib olishdagi geomexanik jarayonlarni nuqtaviy-fazoviy matematik modellashtirish negizida bort atrofi massivining ustuvorligini baholash va prognoz qilish metodologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida «Angren ko'mir koni»ning bort atrofi massivida sodir bo'ladigan geomexanik jarayonlar olingan.

Tadqiqotning predmetini ko'mir konlarini ochiq usulda qazib olishdagi bort atrofi massivida sodir bo'ladigan geomexanik jarayonlarning marksheyderlik monitoringi va kon ishlarini bexatar olib borishning prognozi tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarish jarayonida tadqiqotning kompleks usullari qo'llanilgan bo'lib, ular geomexanik jarayonlarni marksheyderlik monitoringidan foydalanishga oid nazariy va amaliy umumlashtirishlar, ko'mir qazib olinadigan razrez sharoitida joylardagi bajarilgan o'lchamlar, kon-geometrik tahlil usullari, chekli unsurlar usuli qo'llangan matematik modellashtirish, ishlab chiqarishdagi sinov tajribalar hamda texnik-iqtisodiy hisoblarni o'z ichiga oluvchi tadqiqotlarning umumlashgan usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'mir razrezi bort atrofi massivida kechadigan geomexanik jarayonlarni marksheyderlik monitoring qilish usuli takomillashtirilgan;

Angren ko'mir qazib olish razrezi sharoitida nuqtaviy-fazoviy matematik modellashtirish negizida bort atrofi massividagi deformatsion jarayonlarining paydo bo'lishi va shakllanishining birlamchi sabablari aniqlangan;

ko'chki shakllanishidagi geomexanik jarayonlarni ko'chkilanishga tortilgan tog' jinslarining «geologik xotira»si, ya'ni ko'chki massasini tashkil etuvchi tog' jinslari tanasida sodir bo'ladigan birlamchi darzlikning paydo bo'lishidagi namoyonlik bilan aloqadorligi isbotlangan;

deformatsion ko'chkilanishning sababi va sharoitlarini hisobga olgan nuqtaviy-fazoviy matematik modellashtirish negizida ko'mir qazib olinadigan razrez bort atrofi massivining ustuvorligini prognozlash metodologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«Angren ko'mir koni» bort atrofi tog' jinslari massivining ustuvorligi nuqtaviy-fazoviy matematik model negizida baholangan;

bort atrofi tog' jinslari massivining ustuvorligini sodir bo'ladigan ko'chkilanish-deformatsiyalanish jarayonlari va tog' jinslarining samarali «geologik xotira»sini hisobga olgan holda prognoz qilingan;

«Angren ko'mir koni»ni jadal o'zlashtirish sharoitida bort atrofi massivlarida sodir bo'ladigan geomexanik jarayonlarning marksheyderlik monitoringi usullari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy natijalar, xulosa va tavsiyalar ko'mir razrezi bort atrofi massivining holatini geodezik-marksheyderlik instrumental kuzatuvlar, berilgan va tajribalardan hosil bo'lgan ma'lumotlar hajmi,

qo‘llanilgan zamonaviy tahlil va kompyuter modellashtirish, ishlab chiqilgan usullar tavsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etilgan natijalar bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko‘mir konini jadal qazib olish sharoitida bort atrofi massivida sodir bo‘ladigan ko‘chkilanish-deformatsiyalanish jarayonlarning shakllanish sabablarini, konning hududiy geodinamikasining geologik shakllanish sharoitlarini, konchilik ishlarini boshlashdan avval paydo bo‘lgan tektonik jarayonlar va tog‘ jinslari massivida sodir bo‘ladigan deformatsion jarayonlar sababini baholashni ilmiy asoslash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati geomexanik jarayonlarni nuqtaviy-fazoviy matematik modellashtirish negizida hamda dronlar va havodan skanerlashdan foydalangan holda tizimli instrumental marksheyderlik kuzatuvlari asosida ko‘mir razrezi bort atrofi massivi tog‘ jinslari ustuvorligini prognoz qilish metodologiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko‘mir konlarini ochiq usulda jadal qazib olish sharoitida tog‘ jinslari massivida sodir bo‘ladigan geomexanik jarayonlarni marksheyderlik monitoringi negizida olingan ilmiy natijalar asosida:

nuqtaviy-fazoviy matematik modellashtirish negizida ishlab chiqilgan ko‘mir koni razrezi bort atrofi massivining ustuvorligini ko‘chkilanish-deformatsiyalanish sabablari va sharoitlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan prognozlash metodologiyasi “O‘zbekko‘mir” AJ «Angren razrezi»da amaliyotga joriy etilgan («O‘zbekko‘mir» aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil 24 noyabrdagi 01-1/2286-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, «Angren ko‘mir koni» bort atrofi tog‘ jinslarining ustuvorligi o‘z vaqtida yaqin istiqbol davri uchun baholash imkonini bergan;

geomexanik jarayonlarni takomillashtirilgan marksheyderlik monitoringi «O‘zbekko‘mir» aksiyadorlik jamiyati «Angren ko‘mir koni» amaliyotida joriy etilgan (O‘zbekko‘mir» aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil 24 noyabrdagi 01-13/2286-sonli «ma’lumotnomasi). Bu holat «Angren ko‘mir koni»da konchilik ishlarni oqilona va bexatar olib borishni marksheyderlik ta’minotini takomillashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 3 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, shu jumladan respublika nashlarida 5 ta va xorijiy jurnallarda 4 ta maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, obyekt va predmet tavsiflangan,

respublika fan va texnologiyalar ustuvor yo'nalishlariga tadqiqotning mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, erishilgan natijalarning ilmiy va amaliy mohiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, dissertatsiyaning hajmi va tuzilmasi keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Ko'mir qazib olish razrezining bortlari va qiyaliklari ustuvorligini ta'minlashda marksheyderlik monitoringi masalalarining o'rganilganligi**» deb nomlangan birinchi bobida xalqaro va respublika miqyosida ko'mir razrezi borti va pog'ona qiyaliklari ustuvorligiga oid zamonaviy manbalar, kon-texnikaviy inshootlarning deformatsiyalanish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi sharoit va omillar, shuningdek, «Angren ko'mir koni» bort atrofi massivida sodir bo'layotgan geomexanik jarayonlarning baholanishi tahlil qilingan.

Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olishda ko'mir razrezi borti va pog'ona qiyaligining ustuvorligini ta'minlash geomexanik muammoning dolzarb masalasi hisoblanadi.

MDH mamlakatlarida geomexanik tadqiqotlar, karyer bortlari, pog'ona va ag'darma qiyaliklari ustuvorligi masalalari bilan Rossiya Federatsiyasida SPBGU (Sankt-Peterburg), VIOGEM OAJ (VIOGEM, Belgorod sh.) Rossiya fanlar akademiyasi Ural bo'limining konchilik ishlari instituti (Yekaterinburg sh.), Qozog'iston Respublikasida D.A. Kunayev nomidagi Konchilik ishlari instituti (Olmaota sh.), K.I. Satpayev nomidagi KazNITU (Olmaota sh.), KarGTU (Qarag'anda sh.), D. Serikbayev nomidagi VKGTU (Ust-Kamenogorsk), Ukrainada UKRNII-proyekt (Kiyev sh.), va boshqalar shug'ullanganlar. Ushbu masalaga uzoq xorij mamlakatlarda katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, Kanada, Avstraliya, AQSH, Germaniya, JAR va boshqalar. Karyer borti va pog'ona qiyaligining deformatsiyalanishi va ularni tasniflash masalalari bilan quyidagi taniqli olimlar shug'ullanganlar. Jumladan, G.L. Fisenko, F.P. Maslov, N.N. Panyukov, Y.P. Yemelyanova, A.M. Demina, E.L. Galustyan, V.R. Raximov, Y.D. Norov, R.SH. Naimova.

Xorijiy davlatlar va respublikamiz olimlarining foydali qazilmalarni qazib olishdagi kon-geologik va kon-texnik xususiyatlarining murakkabligi va xilma-xilligi sababli muayyan kon sharoitida bort va qiyaliklarning ustuvorlik masalalarini yechishdagi hissalar katta bo'lganligiga qaramay, karyer bortlari va pog'ona qiyaliklarining deformatsiyalanishini baholash va ustuvorligini prognozlash muammosi yechimini takomillashtirish bilan bog'liq tadqiqotlarni davom ettirishni taqozo etadi. Mazkur dolzarb ilmiy-amaliy muammo masalasining yechimi ko'mir qazib oladigan razrez bort atrofi massivi holatini tizimli marksheyderlik monitoringini amalga oshirish va uning ustuvorligini aprior prognozlash orqali ta'minlanishi mumkin bo'ladi.

Ko'mir konlarini jadal qazib olishni o'zlashtirishda foydali qazilma konlaridan oqilona va bexatar foydalanishni marksheyderlik kuzatishlar va ustuvorlikni hisoblashni bajarish natijalari orqali pog'ona va bort yaxlitligining buzilishini oldini olish va avvaldan deformatsiyalanishga qarshi chora-tadbirlarni o'z vaqtida ko'rish orqali erishish mumkin bo'ladi.

Dissertatsiyaning «**Angren ko‘mir koni»dagi konchilik ishlari holatini kon-geometrik tahlili»** deb nomlangan ikkinchi bobida konni o‘zlashtirishning kon-geologik sharoitlari, qazib olish texnologiyasi tavsiflari va ishlab chiqarish jarayonlarining parametrlari tahlil qilangan hamda ko‘mir razrezi borti va pog‘ona qiyaligining ustuvorligini ta‘minlash holatini monitoring qilish zarurati asoslangan.

Zamonaviy tuzilma jihatidan Angren ko‘mir koni Angren depressiyasiga tegishli. Angren depressiyasi (yuqori qismi 6-7 km, o‘rta qismi 14 km va quyi qismi 5-6 km bo‘lgan vodiy) tog‘orasimon sinklinal bo‘lib, mezazoy va kaynazoy formatsiyasi kompleksidan tashkil topgan va Ohangaron daryosi oqimiga nisbatan qiyalangan (5-6 gradus) yassi tublidir. Janub va shimol tomonlardan depressiya tektonik uzilmalar bilan cheklangan bo‘lib, unga Chotqol va Qurama tog‘liklari ustamasimon joylashgan.

Tektonik harakatlarning tavsifli xususiyatlari Angren konining cho‘kindilarida o‘z ifodasini topgan. Ular tog‘ jinslarining geologik qirqimidan alohida svitalarning bir-biriga nisbatan noto‘g‘ri joylashuvi shakllarida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda o‘rganilayotgan «Angren ko‘mir koni» hududida tektonik dezyunktiv buzilishlar poleozoydan to‘rtlamchi davrgacha bo‘lgan yotqiziqlardagi barcha stratigrafik birliklarda mavjud.

Joydagi kuzatuvlar natijasida ko‘pgina pog‘onalarning namlanganligi va maydonlarda suv yig‘ilib qolganligi ayon bo‘ldi. Razrez shimoliy-sharqiy bortining suvlanishi Ohangaron suv omboridan suvning sizib o‘tayotganligidan dalolat beradi. Razrez ish olib borilayotgan bortining butun bo‘yi bo‘ylab tog‘ jinslarining dumalanishi va qulashida loysimon tog‘ jinslarining suv bilan to‘yinganligi va mavjud o‘lchamlarning ustuvorlik bo‘yicha tavsiya etilgan qiymatlar bilan mos kelmasligi tufayli sodir bo‘lganligidir.

Ohangaron suv omborining etagida bortning shimoliy-sharqiy tomonidan «Shimoliy» ko‘chki paydo bo‘lgan. G‘arbiy va shimoliy-g‘arbiy bort esa «Markaziy» ko‘chki qurshovida (1-rasm).



1-rasm. «Shimoliy» va «Markaziy» ko‘chkilarning joylashish sxemasi

1993 yil may oyida «Markaziy» ko‘chkining o‘ng qanotida darzlik ko‘rinishida «Qo‘qon massivi» ko‘chkisi shakllangan.

2002 yilda ushbu darzliklar asosiy «Markaziy» ko‘chki bilan tutashgan. Darzliklarning cho‘ziqligi 100-500 m bo‘lib, qulash prizmasining hajmi 3,5 mln m³ ni tashkil etgan.

2011 yilda bortning uzoq muddatli o‘zgarishsiz holatidan keyin «Markaziy» ko‘chkida deformatsion jarayonlari faollashgan. Ko‘chkilanish massasining cho‘kishi 40 m ga yetgan. Natijada 8,5 mln m³ suv yig‘ilib dara paydo bo‘lgan.

Shundan keyin «Qo‘qon massivi» ko‘chkisi «Markaziy» ko‘chki bilan to‘liq tutashgan.

2018 yilda qator darzliklar paydo bo‘lib, ko‘chkini siljishida keskin faollik boshlangan. Siljish tezligi vertikal tekislikda 79,7 mm/sutka, gorizontalka tekislikda esa 738,6 mm/sutka ga yetib, uzunligi 70 m ga, chuqurligi 5 m, kengligi 2,3 m, cho‘kish 3m ga yetgan yangi darzlik paydo bo‘lgan. (2-rasm).



2-rasm. «Qo‘qon massivi» ko‘chkisi darzligi bo‘yicha cho‘kishning umumiy ko‘rinishi

Ushbu holat razrezdagi konchilik ishlarini olib borish davrida marksheyderlik monitoringini to‘liq amalga oshirishni taqozo etadi. Monitoringni olib borish qo‘lga kiritilgan natijalarni avariya sodir bo‘lishi tavakkalini ifodalovchi xavfsizlik tamoyili bilan taqqoslashni nazarda tutadi.


Dissertatsiyaning «**Ko‘mir konlarida ochiq konchilik ishlarini olib borishda bort ustuvlorligini markshryderlik monitoring negizida geomexanik ta‘minlash**» deb nomlangan uchinchi bobida bag‘ishlangan bo‘lib, unda tog‘ jinslarining fizik-mexanik xossalari va zaiflashuv sirtlari to‘g‘risidagi ko‘p yillar davomida olingan va teskari hisoblar usuli bilan aniqlangan ma‘lumotlar tahlili keltirilgan.

Ustuvorlik zahirasi koeffitsiyenti ko‘rsatkichlarini aniqlashda tog‘ jinslari fizik-mexanik xossalari aniqlashning ishonchliligi; qulashi mumkin bo‘lgan prizma chegarasida joylashgan inshootning saqlanish toifasi; eng ko‘p kuchlanishli siljish sirtini tasvirlash xatoligi va pog‘ona qiyaligining ustuvorligini hisoblash usullari kabi qator omillar aniqlangan.



3-rasm. «Markaziy» va «Shimoliy» ko‘chkilarning 3D modellari


Ustuvorlikni baholash uchun tadqiqotning kompleks usullari qo‘llanilib, ular o‘z ichiga ko‘mir konini ochiq usulda qazib olish ta‘siri chegarasidagi tog‘ jinslari massivining siljish jarayonlarini tadqiqi, dronlar vositasida tizimli instrumental marksheyderlik kuzatishlar usulini qo‘llagan holda, sanoat miqiyosida eksperimental tadqiqotlar va ularning natijasi o‘laroq MICROMINE dasturi vositasida konning 3D modellari yaratilgan (3-rasm).



4-rasm. Tog' jinslari ichki ag'darmalari hajmining fazoviy modeli

«Angren ko'mir koni» hududida tog' jinslari massivi kuchlanishi-deformatsiyalanishini joylardagi o'lchash va tahlil qilish natijasida yuqori darajadagi gorizont bosim mavjudligi aniqlangan. Gorizont kuchlanish moduli uning vertikal tashkil etuvchisiga nisbatan ikki va undan ortiq barobar ekanligi aniqlangan. «Angren ko'mir koni»ni qazib olish sharoitida bortlarni yakuniy holatiga keltirish va deformatsiyalanishni oldini olish uchun biz tomonimizdan ish olib borilayotgan yuqori gorizontlardan tog' jinslarini ichki ag'darmaga tushirib, avval ikkilamchi kaolinlar ombori bo'lgan joyda yig'ish tavsiya qilindi va bu amal bugungi kunga qadar bajarilib kelinmoqda, natijada bortning ustuvorligi uchun qo'shimcha ravishda tayanch ta'minlandi (4-rasm).

Ko'rilgan choralarni baholash uchun qator marksheyderlik instrumental kuzatishlar 2018-2022 yillarda amalga oshirilib tog' jinslarining siljishlari zamon va makon o'lchamida aniqlangan (5-rasm).




5-rasm. «Markaziy» va «Shimoliy» ko'chkilarning 2018 yildan 2022 yilgacha bo'lgan siljishlarining diagrammasi

Taklif etilgan tafsiyalarni amalda qo'llash tufayli «Angren ko'mir koni» bort atrofi massividagi siljishlar jarayoni qisman kamayib ijobiy natijalarga erishildi va bu holat tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etilganligi to'g'risidagi dalolatnomada o'z aksini topgan.

Shunday qilib, bajarilgan kon-geometrik tahlil va marksheyderlik monitoring natijalari o‘laroq, razrez bortining 3D modelidan foydalangan holda bort va pog‘ona qiyaligi ustivorligini ta‘minlash borasida zamon va makon o‘lchamida obyektiv baholashga erishilgan. «Angren ko‘mir koni»dagi ko‘mirni jadal qazib olish sharoitida sodir bo‘ladigan deformatsion jarayonlarning birlamchi sabablarini aniqlashga erishilgan.

Dissertatsiyaning ««Angren ko‘mir koni»ni ochiq usulda qazib olishdagi sodir bo‘ladigan geomexanik jarayonlarni nuqtaviy-fazoviy matematik modellashtirish negizida bort atrof massivi ustuvorligini baholash va prognozlash» deb nomlangan to‘rtinchi bobida chekli unsurlar usulini qo‘llab bajarilgan raqamli modellashtirish natijasida «Vodiy-tog‘ etaklari» tizimidagi bort atrofi massivining kuchlanish-deformatsiyalanish holatidagi o‘zgarishlar baholangan va uning negizida kon hududida konchilik ishlarini boshlashdan avval shakllangan tektonik kuchlanish maydoni va gorizontal hamda vertikal siljishlar baholangan.

Kon hududida vodiy tubining dengiz sathiga nisbatan balandligi 1020 m gacha tog‘ oldining balandligi esa 3000 m ni tashkil etishi tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Vodiy yon bag‘rining maksimal balandligi 2000 m bo‘lgan tog‘ etagi bilan birgalikdagi modelning sxemasi va kesimi 6-rasmda keltirilgan.



1-1 – kon hududidagi Ohangaron vodiysining kesimi, 2-2 – ko‘rilayotgan markaziy ko‘chki orqali o‘tgan kesim, 3-3 – ko‘rilayotgan «Shimoliy» ko‘chki orqali o‘tgan kesim

6-rasm. «Angren ko‘mir koni» hududidagi joy plani

«Vodiy-tog‘ etaklari» tizimini chekli unsurli modellashtirishda qo‘llaniladigan dasturiy ta‘minot (DT) o‘lchami 900 metrdan ortiq bo‘lmagan modellar uchun ishlaydi. Shuning uchun ushbu DTni qo‘llashda og‘ir fazoviy siqilish ($h_M = h_0 \cdot N$) va hajm birligi ko‘rsatkichlari ($\gamma_M = \gamma_0 \cdot N$)ni N marotaba oshirishga yo‘l qo‘yamiz, natijada siqilgan modelning alohida nuqtalaridan vazniy kuchlanishi tabiiy obyektidagiga mosligiga erishamiz. Aynan obyekt nuqtalaridagi deformatsiyalanish va siljishlar modelning o‘xshash ko‘rsatkichlariga N ko‘paytma bilan mos bo‘lib, (1,2,3) matematik tengliklarda o‘z ifodasini topadi:


$$\sigma_M = \gamma_M \cdot h_M = \gamma_M \cdot h_0 \cdot N = \gamma_0 \cdot h_0 \cdot N = \sigma_0 = \sigma ; \quad (1)$$

$$\varepsilon = \sigma : E = \nu_0 : h_0 = \nu_M : h_M ; \quad (2)$$

$$\nu_0 = \varepsilon \cdot h_0 = N \cdot h_M \cdot \varepsilon = N \cdot \nu_M \quad (3)$$

Bu yerda σ_m – modeldagi og‘irlik kuchlanishi, σ_o – obyektidagi og‘irlik kuchlanishi, γ_m – modelning hajmiy og‘irligi, γ_o –obyektning hajmiy og‘irligi, h_m – model balandligi, h_o – obyekt balandligi, ε – nisbiy deformatsiya, E – chiziqli deformatsiya moduli, v_o – obyekt nuqtalarining siljishi, v_m – model nuqtalarining siljishi.

Simmetrik vodiylar o‘lchamlarini baholayotganda «Vodiy-tog‘ etaklari» tizimining faqat o‘ng tomonini ko‘rib chiqamiz (7-rasm).




7-rasm. Modelning qabul qilingan o‘lchami (a) va uning tayanish hamda yuklanish sxemasi (b)

Modelning umumiy o‘lchamlari 1-jadvalda va modelni chekli unsurlarga bo‘linishi 8-rasmda keltirilgan.


1-jadval

Soni			Model qalinligi, m	Yonbag‘ir yuqori va pastki burchaklarining doiralaniish radiusi, m
tugunchalar	unsurlar	tenglamalar		
94463	5889	28656	20	20



8-rasm. Modelning chekli unsurli to‘ri

Vodiyning siljish ko‘rsatkichlari 2 va 3 jadvallarda keltirilgan ma‘lumotlar asosida tuzilgan tengsizliklar ko‘rinishida keltirilgan (9, 10 rasmlar).




9-rasm. Siljishlar epyurasi $U_y/10$, mm

2-jadval

N	h, m	U_y , m	N	h, m	U_y , m
1	2000	22,4	7	0	10,1
2	20 0	2 ,4	8	-435	8,18
3	1540	18,3	9	-1550	6,10
4	1100	16,3	10	-2180	4,06
5	714	14,2	11	-2600	2,01
6	333	12,3			


Cho‘kishlar teng chiziqlarining tasviridan ko‘rinib turibdiki, maksimal cho‘kish 23,11 m massivning yuqori o‘ng qismiga to‘g‘ri keladi. Shuning bilan birga massivning cho‘kishi yonbag‘irga yaqinlashgan sari uning chap tomonidagi balandroq nuqtalarini egallaydi. Aynan shunda vodiylarning yonbag‘irlar yaqinidagi

og'irlik kuchlari vertikal kuchlanishning pasaytirishdagi samarasi natijasi paydo bo'ladi. Yarim fazoda teng U_y chiziqlari yassiroq ko'rinishga ega. Demak, yer sirtiga nisbatan chuqurlashgan sari cho'kish ko'rsatkichlari ham o'sib boradi.



10-rasm. Siljish epyuralari $U_x/10$, mm

U_x siljish tengchiziqlaridan ko'rinib turibdiki, maksimal siljish 2,65 m massiv yuqori brovkasiga to'g'ri keladi. Bunda nuqtalarning siljishi yonbag'irdan o'ngga uzoqlashib massiv yuqori nuqtalarini egallaydi. Yarim fazoda U_x teng chiziqlari vertikal ko'rinishga ega.



11-rasm. Shablonli chuqurligi 600 m bo'lgan normal gorizontol σ_y kuchlanishlar


3-jadval

N	h, m	U_y , m	N	h, m	U_y , m
1	1730	2,40	7	269	0,43
2	1440	2,04	8	0	0,12
3	1160	1,71	9	-	-0,194
4	90	1, 2	10	-	-0,524
	682	1,05	11	-	-0,841
6	460	0,81			

Yuqorida keltirilgan U_y va U_x siljishlarining tavsifi konchilik ishlarining boshlanguniga qadar vodiy va tog' atrofi kuchlanish holatini ifodalaydi.

Normal vertikal kuchlanishlar (σ_y) tengchiziqlari vodiy yuqori maydonchasi va qiyaliklarning sirtqi ko'rinish shaklini takrorlaydi (11-rasm).


Vodiy o'rta kesimidagi kuchlanishning o'zgarish grafigi to'g'ri chiziq ko'rinishiga ega (12-rasm). Vodiy tubi sirtidagi kuchlanishlar yonbag'ir pastki chap brovkasidan 170 metrda maksimal qiymati $\sigma_y = 0,25$ MPa ni tashkil etadi. Bu kuchlanish cho'ziluvchan bo'lganligi sababli yonbag'irdagi siljishlar U_y pastga va U_x o'ngga yo'nalganligi tufayli uning qiyalanishini shunchaki kamaytiradi va bu pastki brovka yaqinida cho'zilishni paydo bo'lishiga olib keladi. Cho'ziluvchan kuchlanishlar tez pasayada (13-rasm). Pastki brovkaning o'zida esa $\sigma_y = -2,78$ MPa ga teng bo'lgan siqilish sodir bo'ladi.



12-rasm. Vodiy markazidagi 2760 m chuqurlikgacha bo'lgan (σ_y) vertikal kuchlanish o'zgaruvchanligi




13-rasm. Vodiy tubidagi pastki brovkadan markazgacha bo'lgan vertikal kuchlanishlar (σ_y) o'zgaruvchanligi




14-rasm. Shablonli 600 m chuqurlikdagi normal gorizontol σ_x kuchlanishlar

Vodiy tubidan boshlab chuqurlashgan sari qiyalanish oshib boradi. Kuchlanishning manfiy qiymatliligi ularning siqiluvchangligidan dalolat beradi. Vodiyning markazida belgilangan chuqurlik 15-rasmda keltirilgan. Vodiy tubi pastki brovka yaqinida siqiluvchan uchastkalar bilan tavsiflanib, keyinchalik cho‘ziluvchan uchastkalarni o‘z ichiga oladi (16-rasm).




15-rasm. Vodiyning markazida 600 m chuqurlikdagi gorizontol kuchlanishlar (σ_x) o‘zgaruvchanligi




16-rasm. Pastki brovkadagi vodiy markazigacha gorizontol (σ_x) kuchlanishlar taqsimoti

Urinma kuchlanishlarning τ_{xy} tengchiziqlari va o‘zgaruvchanlik grafigi 17-18 rasmlarda keltirilgan.



17-rasm. Shablonli 600 m chuqurlikdagi τ_{xy} urinma kuchlanishlarning tarqalishi



18-rasm. Urinma kuchlanish τ_{xy} ning pastki brovkadan vodiyning markazigacha bo‘lgan taqsimoti

Modeldan olingan epyuralarda τ_{xy} siljitadigan kuchlanishlar tengchiziqlari tog‘usti qismlarda va pastki brovka tagida tikroq bo‘lib, yonbag‘irning aynan o‘zida va vodiy tubining ostida qiyalangan kuchlanishlarning manfiyligi ularning vertikal maydonlar uchun pastga va massivning gorizontol maydonchalari uchun chapga yo‘naltirilganligidan dalolat beradi. Urinma kuchlanishi τ_{xy} 600 metr shab-


lon chuqurlik chekligidagi gorizontallar yaqinida 0,412 MPa va pastki brovkada 4,83 MPa ga teng. Vodiyning tubi va markazida urinma kuchlanishlar $\tau_{xy} = 0$.

Shunday qilib, ko'chkining shakllanishidagi geomexanik jarayonlar ko'chkilanish jarayoniga jalb qilingan tog' jinslari «geologik xotira»si bilan genetik bog'liqlikka ega ekanligi, aynan ko'chki massivini tashkil etuvchi tog' jinslari tanasidagi birinchi darzlikni paydo bo'lishligi bilan isbotlangan.


«Angren ko'mir koni» bortidagi ko'chkili uchastkalarda (2-2, 3-3) kesma chiziqlari (6-rasmga qarang) bo'ylab ustuvorlik tadqiq qilindi.

Ustuvorlik $K_{min} \geq K_s$ sharti bo'yicha baholandi (K_{min} – siljishning eng xavfli sirti bo'yicha hisoblangan ustuvorlikning zahira koeffitsiyenti). Solidworks Premium SP1.0.2019 dasturidan foydalanib, uning algoritmi massivning qatlamligi va eng xavfli siljish sirtini qidiradigan doiraviy yon ko'rinishdagi xilma-xil siljish chizig'ini tanlash imkoniyatiga ega. Shuningdek, dastur bortda bo'ladigan seysmik ta'sirni ham inobatga olib, ustuvorlikni 3 ta usulda (G. Krey, K.Tersagi, Vazniy bosim) aniqlaydi.

19-20 rasmlarda 2-2 kesimi («Markaziy» ko'chki) va 3-3 kesimida («Shimoliy» ko'chki) ko'chkilarning shakllanish mexanizmi keltirilgan.



19-rasm. «Markaziy» ko'chkining yakuniy holati (2-2 kesimi)




20-rasm. «Shimoliy» ko'chkining yakuniy holati (3-3 kesimi)

Siljish sirti holatlarining variatsiyalari uchun radius markazlari (RM) zonalarini tanlash usuli bilan ularning inshoot chetidan oshib chiqishlariga qarab nazorat qiluvchi minimal (R_{min}) va maksimal (R_{max}) radiuslar va inshootni eng ko'p qamrab oluvchi 2-2, 3-3 grafiklari raqamlangan 2-2 kesimi (21, 22 - rasmlar) (24400 variant) va 3-3 kesimi (22-24- rasmlar) (1000 variant) uchun optimal RM siljish sirtlarining holati variatsiyalaridan kelib chiqib aniqlangan.


2-2 kesim bo'yicha G. Krey, K. Tersagi va Vazniy bosim usullari bilan hisoblab topilgan minimal ustuvorlik zahirasi koeffitsiyenti (K_m) mos ravishda 1,647; 1,649; 1,724 ga teng, ushbu koeffitsiyentning 3-3 kesimida K.Tersagi usuli bilan topilgan qiymati 1,09 bo'lib, u 2-2 profildagi o'ziga o'xshash qiymatdan kichik, lekin ($K_m \geq K_s$) ustuvorlik shartiga javob beradi.

«Markaziy» ko'chki konfiguratsiyasi ustuvorligining qulay holati uchun uning 840 m gorzontidagi pastki tashlanmalarni hisobga olmagan holda ustuvorligi aniqlangan. «Markaziy» ko'chki uchun zahira koeffitsiyenti $n=K_m/K_s$ bo'yicha $n=1,363$ ga, xuddi shunday «Shimoliy» ko'chki uchun $n=1,149$.


Qayd etilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, «Shimoliy» ko'chki uchun yuqorida joylashgan tashlanmalarni xavfsizlik bermasini qoldirmasdan bir qismini ajratib olish asosiy tog' jinslarini ko'chishini undashi mumkin.



21-rasm. Hisoblar uchun raqamlangan profil (2-2 kesim)



22-rasm. Siljishning eng xavfli sirti va RM




23-rasm. Hisoblar uchun raqamlangan profil (3-3 kesim)



24-rasm. Siljishning eng xavfli sirti va RM

Balandligi 166 m va yuqori tikli (31°) yonbag'ir hamda yuqori yassi bo'lgan shaklni o'z ichiga olgan profil uchun tadqiqot o'tkazilgan (25-rasm).



25-rasm. 750 m gorizontdagi 10-PK profili


Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, blokda 7 turdagi tog' jinslari qatlamlaridan to'rttasining tavsiflari ustuvorlik mezon talablariga ($K_m \geq K_S$) javob bermaydi.

4-jadvalda minimal yoy markazining ko'rsatkichlari va 26-rasmda ularning tasviri keltirilgan.

4-jadval

Yoy markazi

R, m	390,26
Xs, m	620
Ys, m	456,67



26-rasm. Siljish yoyining holati

Shunday qilib, K.Tersagi usuli bilan $K_m \geq K_S$ sharti bo'yicha aniqlangan bort ustuvorligi zahirasi ($n=1,445/1,21=1,194$) ga teng bo'ladi.

Xuddi shu usulda K_m ning qiymati $n=1$ va $K_S=8$ ball bo'lganda aniqlangan va ular qoniqarli natijalar sifatida tavsiflanadi (5-jadval).

	K _m usullar bo'yicha		
δ	G.Krey	K.Tersagi	Vazniy bosim
0,4	1,462	1,445	1,581

Taklif etilgan «Angren ko'mir koni» bort atrofi tog' jinslari massivining ustuvorligini prognozlash metodologiyasining mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Konchilik ishlarini jadal olib borish jarayonida foydali qazilmani qazib olish va erkin sirtlarning paydo bo'lishi barobarida tog' jinslarida qoldiq kuchlanishlarning barcha belgilari nomoyon bo'ladi va alohidalangan tektonik belgilar qoldiq va gravitatsion kuchlanishlar ta'sirida birlamchi o'rniga qaytishga intiladi. Natijada ko'mir razrezi konturidagi tog' jinslarida gorizontalar deformatsiyalar paydo bo'lib, pog'ona ustuvorligining buzilishi va muhim inshootlarni deformatsiyalanishiga olib keladi. Tog' jinslari bloklarining siljishi sababli dizyunktiv buzilishlarning razrez konturi bilan kesishgan joylarida razrez borti qiyaliklarining ustuvorligiga eng ko'p zarar yetkaziladi.

2. «Angren ko'mir koni»ning sharqiy qismidagi g'arbiy yo'nalishli yoriq tayanch bosim zonasida joylashgan tog' jinslarining nisbiy siljishiga yordam beradi va tabiiy muvozanat zonasini shakllantiradi.

3. Sharqiy yo'nalish vektoriga ega bo'lgan tog' jinslarining siljishi razrezning qazib bo'lingan fazasi tomon bir maromda amalga oshadi, shuningdek, tog' jinslarining shimoliy-sharqiy yo'nalishli natijaviy vektor tomon siljishi darzliklarni ochilishi va zaiflashuviga olib keladi hamda suvning shimirilishini tezlashtiradi.

4. Tog' jinslarini qayd etilgan fizik-mexanik xossalarning muayyan zonalaridagi o'zgaruvchanligi razrez bortida ko'chkilanish jarayonlarining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Razrezda qazish ishlarining rivojlanishi tufayli kontur atrofi tog' jinslarining geomexanik holatlari o'zgarib, ularning qalinroq qatlamlari va katta hajmli zonalar deformatsiyalanish jarayoniga tortiladi. Bu razrezning janubiy va g'arbiy bortlaridagi ko'chkilar sonining oshib borishiga sabab bo'ladi.

5. Bunday hollarda bort holatini turg'unlashtirish bo'yicha har qanday texnik tadbirlar muvofaqqiyatsiz bo'ladi. Har qanday holatda ham tog' jinslarining doimiy siljishi sodir bo'ladi va bugungi kunda uning mavjud holatini belgilangan ko'rinishda turg'unlashtirish emas, balki ko'chkilanish jarayonini lokalizatsiyalash orqali uning ustuvorligini saqlab qolish maqsadga muvofiq bo'ladi. Metodologiyada tavsiya etilgan bort atrofi massivining geomexanik holatini hisobga oluvchi amallar bajarilsagina, mazkur tadbirlarning ijrosi ijobiy bo'ladi. Masalan, ag'darma tog' jinslaridan hosil qilingan tayanmadan foydalangan holda janubiy bort turg'unligini ta'minlashga erishish mumkin.

XULOSA

«Angren ko'mir konini jadal o'zlashtirish sharoitida yer qa'ridan oqilona va bexatar foydalanishning marksheyderlik monitoringi» mavzusida texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar

natijasida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Razrez borti natijaviy qiyalanish burchagi 11° dan 14° gacha balandligi 210 m dan 286 m gacha bo'lgandagi bortda konchilik ishlarini olib borish frontining shimoliy-g'arbiy yo'nalishida rivojlanishga moyilligi aniqlangan.

2. Razrez borti va qiyaliklarining ustuvorligiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarning umumiy kuchi hamda ularning eng afzallarini marksheyderlik kuzatuvlar natijasida aniqlanishi va razrezdagi konchilik ishlari fronti chekli konturga intilganda hamda pastki gorizontlarda foydali qazilmani ochish ishlari ta'sirida qiyalanishlarni shakllanib borishiga qarab bort atrofi massivi holati nazoratini o'rnatish tartibi ishlab chiqilgan.

3. Ko'mir razrezi bort atori massivi ustuvorligi holatini marksheyderlik monitoringi usuli razrez borti va pog'ona qiyaliklarining zamon va makon o'lchamidagi 3D modeli hamda kon geometrik tahlil natijalaridan foydalangan holda takomillashtirilgan.

4. «Angren ko'mir koni» zonasidagi vodiy qismi ko'ndalang kesimidagi kuchlanish-deformatsiyalanish holatining nuqtaviy-fazoviy matematik modeli ishlab chiqilib, uning negizida ko'mir koni tayangan Angren depressiyasining yuqori qismidagi kengligi 6 km bo'lgan sinklinal konchilik ishlari boshlanishidan avval tangensial deformatsiyalangan nadvig (ustlama surilish) shaklidagi tektonik tuzilmaning paydo bo'lishi uchun sharoit yaratganligi aniqlangan.

5. Ko'chkilanish jarayoniga jalb qilingan tog' jinslari «geologik xotira»si bilan ko'chki sababchisi bo'lgan geomexanik jarayonlar orasida genetik bog'liqlik borligi isbotlangan bo'lib, u ko'chki massivini tashkil etuvchi tog' jinslari tanasidagi birlamchi darzlikni paydo bo'lishida namoyon bo'lgan.

6. Angren ko'mir konini jadal o'zlashtirish sharoitida ko'chkinlanish-deformatsiyalanish jarayonining birlamchi sababi aniqlangan. «Markaziy» va «Shimoliy» ko'chkilarning ustuvorligi zahira koeffitsiyentlari mos ravishda $n=1,363$ va $n=1,140$ bo'lganda pastdagi tashlanmalarning tayanch yuklamasini inobatga olmagan holda ta'minlanishi ko'rsatib berilgan.

7. Qattiq tog' jinslarida tog' zonasidagi darzliklar zaif kontaktlarining to'satdan paydo bo'lishiga sabab bo'lish va darzliklar tufayli zaiflashgan massiv mavjud qiyaliklar bo'yicha ko'chishi ko'rsatib berilgan. Bu esa «Markaziy» va «Shimoliy» ko'chkilar pasportida o'z tasdig'ini topganligi aniqlangan.

8. Razrez konchilik ishlari to'xtatilgan bortidagi tog' jinslari 7 turdan iborat bo'lib, 31° ga ko'tarilgan tik qiyalikli, balandligi 160 metrga teng pastki blok va yassi ust chegarasida zahira koeffitsiyenti $n=1,194$ ga teng bo'lganda ustuvor bo'lishi asoslangan.

9. Ko'mir razrezi bort atrofi massivining ustuvorligini ko'chkilanish-deformatsiyalanish sharoiti va sababini hisobga oluvchi nuqtaviy-fazoviy matematik modellashtirish negizida prognozlashning metodologiyasi ishlab chiqilgan va amaliyotda joriy etilgan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.22/30.12.2019.Т.98.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ФИЛИАЛЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА «МИСИС» В ГОРОДЕ
АЛМАЛЫК**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

СОХИБОВ ИСОМИДДИН ЮЛДАШОВИЧ

**МАРКШЕЙДЕРСКИЙ МОНИТОРИНГ РАЦИОНАЛЬНОГО И БЕЗОПАСНОГО
НЕДРОПОЛЬЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ИНТЕНСИВНОГО ОСВОЕНИЯ
АНГРЕНСКОГО УГОЛЬНОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ**

04.00.09 – Маркшейдерия

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Алмалык – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2023.1.PhD/Т3453.

Докторская диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.misis.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Сайидкосимов Сайиджаббор Сайидкосим угли доктор технических наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	Бахаева Светлана Петровна доктор технических наук (DSc), профессор Хасанов Алексей Рашидович доктор философии (PhD) по техническим наукам
Ведущая организация:	Навоийский Государственный Горно-Технологический Университет

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 г. в ____ часов на заседании Разового Научного совета на основе Научного совета DSc.22/30.12.2019.Т.98.01. (Адрес: 110101, Ташкентская область, город Алмалык, улица Амира Темура 56. Телефон: +99870 614-22-57, e-mail: info@misis.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Альмалыкского филиала Национального исследовательского технологического университета «МИСИС» (зарегистрирован за № _____). (Адрес: 110101, Ташкентская область, город Алмалык, улица Амира Темура 56. Телефон: +99870 614-22-57).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 г.
(реестр протокола рассылки № __ от «__» _____ 2023 г.)

Ф.Я. Умаров

Председатель Разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

Г.С. Нутфуллоев

Ученый секретарь Разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

Ш.Ш. Заиров

Председатель Разового Научного семинара при Разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотации диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире ведущая роль в рациональном и безопасном недропользовании отводится маркшейдерским службам горнодобывающих предприятий. В настоящее время задачи маркшейдерской службы значительно усложнились в связи с расширением месторождений и углублением горных работ, что требует от маркшейдеров проведения предельно тщательных, высокоточных и своевременных измерительных работ.

На сегодняшний день в мире в настоящее время для достижения эффективной и безопасной работы при открытой добыче угля мониторинг проводится с привлечением специалистов различного профиля. Роль маркшейдера в этой системе неопределима, поскольку он должен предоставлять такие информации, как наблюдаемые параметры карьера, результаты наблюдений за сдвигами и деформациями массивов, расчет запасов полезных ископаемых и геометрию отвалов. Маркшейдерским службам, владеющим современными данными о месторождениях, следует контролировать геомеханические процессы в прибортовом массиве карьеров, а также прогнозировать их состояния. В связи с этим достигнуты определенные успехи в условиях конкретных месторождений в разных горнодобывающих странах мира, но отсутствуют комплексные исследования, учитывающие такие важные факторы как условия геологического формирования региональной геодинамики района месторождения, тектонические процессы, происходившие до начала ведения горных работ на месторождении на базе точечно-пространственных математических моделей, позволяющие оценить причину происходящих деформированных процессов в массиве горных пород.

В Республике Узбекистан особое внимание уделяется развитию угледобывающих предприятий и достигается ряд научно-практических результатов, в том числе в Указе Президента Республики Узбекистан¹ определены важные задачи «...комплексные меры по обеспечению достижения целевых параметров по объемам вскрышных работ и добычи угля на период 2017 - 2021 годы». В связи с этим важно выполнять задачи исследования и разработка методов прогнозирования и оценка состояния устойчивости прибортового массива в связи с углублением горных работ в деформационных зонах на базе маркшейдерского мониторинга.

Данное диссертационное исследование направлено, в том числе на выполнение некоторых задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-4234 от 7 марта 2019 г. «О мерах по повышению эффективности управления акционерным обществом «Узбекуголь», №УП-4497 от 19 октября 2019 г. «О внесении изменений и дополнения в постановление Президента Республики Узбекистан от 7 марта

